



## FOREIGN TRADE RELATIONS OF THE KOKAND KHANATE AND THEIR ROLE IN THE CENTRAL ASIAN ECONOMIC SYSTEM

*Laylo Ruzikulova*

*Teacher*

*University of Information Technologies and Management*

[laylorozikulova@gmail.com](mailto:laylorozikulova@gmail.com)

*Tashkent, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Kokand Khanate, Bukhara Khanate, Khiva Khanate, trade relations, economic cooperation, caravan routes, foreign policy, market system, Central Asia, handicrafts.

**Received:** 04.04.26

**Accepted:** 05.04.26

**Published:** 06.04.26

**Abstract:** This study examines the foreign trade relations of the Kokand Khanate, the factors of their formation, and the stages of their development based on historical sources. Particular attention is paid to the trade connections of the Khanate with neighboring states, the Russian Empire, Eastern Turkestan, and other regions, as well as to trade routes, export-import structures, and the specific features of its economic policy. The research demonstrates that the foreign trade relations of the Kokand Khanate played a significant role in the formation and development of the economic system of Central Asia.

---

## QO‘QON XONLIGINING TASHQI SAVDO ALOQALARI VA ULARNING MARKAZIY OSIYO IQTISODIY TIZIMIDAGI O‘RNI

*Laylo Ruzikulova*

*O‘qituvchi*

*Axborot Texnologiyalari va Menejmenti Universiteti*

[laylorozikulova@gmail.com](mailto:laylorozikulova@gmail.com)

*Toshkent, O‘zbekiston*

---

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** Qo‘qon xonligi, Buxoro xonligi, Xiva xonligi, savdo aloqalari, iqtisodiy munosabatlar, karvon yo‘llari, tashqi siyosat, bozor tizimi, Markaziy Osiyo, hunarmandchilik.

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotda Qo‘qon xonligining tashqi savdo aloqalari, ularning shakllanish omillari hamda rivojlanish bosqichlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Xususan, xonlikning qo‘shni davlatlar, Rossiya imperiyasi, Sharqiy

Turkiston va boshqa mintaqalar bilan savdo munosabatlari, savdo yo'llari, eksport-import mahsulotlari hamda iqtisodiy siyosatining o'ziga xos jihatlari yoritib beriladi. Tadqiqot natijasida Qo'qon xonligining tashqi savdo aloqalari Markaziy Osiyo iqtisodiy tizimining shakllanishi va rivojlanishida muhim omillardan biri bo'lganligi ilmiy asosda isbotlanadi.

---

## ВНЕШНИЕ ТОРГОВЫЕ СВЯЗИ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА И ИХ РОЛЬ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

*Лайло Рузикулова*

*Преподаватель*

*Университет информационных технологий и менеджмента*

*[laylorozikulova@gmail.com](mailto:laylorozikulova@gmail.com)*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Кокандское ханство, Бухарское ханство, Хивинское ханство, торговые отношения, экономические связи, караванные пути, внешняя политика, рыночная система, Центральная Азия, ремесло.

**Аннотация:** В данном исследовании анализируются внешние торговые связи Кокандского ханства, факторы их формирования и этапы развития на основе исторических источников. Особое внимание уделяется торговым отношениям ханства с соседними государствами, Российской империей, Восточным Туркестаном и другими регионами, а также торговым путям, структуре экспорта и импорта, особенностям экономической политики. В результате исследования обосновывается значительная роль внешней торговли Кокандского ханства в формировании и развитии экономической системы Центральной Азии.

---

**Kirish.** Markaziy Osiyo hududida XVIII–XIX asrlarda mavjud bo'lgan xonliklar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar mintaqaning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Ayriqsa, Qo'qon xonligining Buxoro va Xiva xonliklari bilan olib borilgan savdo aloqalari nafaqat ichki bozorlarning rivojlanishiga, balki mintaqada iqtisodiy barqarorlik va o'zaro bog'liqlikning shakllanishiga ham xizmat qilgan. Ushbu davrda savdo yo'llarining kengayishi,

tovar ayirboshlash hajmining ortishi hamda bozor munosabatlarining mustahkamlanishi xonliklar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning muhim omillaridan biri bo'lgan.

Qo'qon xonligining qo'shni davlatlar, Rossiya imperiyasi hamda Sharqiy Turkiston bilan olib borgan savdo aloqalari Markaziy Osiyo iqtisodiy tizimining shakllanishi va rivojlanishida sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli mazkur tadqiqotda xonlikning tashqi savdo aloqalari va ularning mintaqa iqtisodiy hayotidagi o'rni tarixiy manbalar asosida ilmiy tahlil qilinadi.

Qo'qon xonligining geografik joylashuvi uning mintaqaviy savdo tizimida muhim markazga aylanishiga sharoit yaratgan. Xonlik orqali o'tgan karvon yo'llari Buxoro va Xiva bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, siyosiy vaziyat, soliq siyosati, bozor infratuzilmasi hamda tashqi savdo manfaatlari savdo munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Qo'qon xonligining qo'shni xonliklar bilan iqtisodiy munosabatlari Markaziy Osiyoda mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarini tushunishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu aloqalarni o'rganish orqali xonliklar o'rtasidagi savdo hamkorligining xususiyatlari, uning iqtisodiy taraqqiyotga ko'rsatgan ta'siri hamda mintaqaviy bozor munosabatlarining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Muhokama va natijalar. Qo'qon xonligi tashqi savdo aloqalarida Buxoro va Xiva xonligi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Bu xonliklar o'zaro chegaradosh bo'lishi bilan birga, ularda yashayotgan xalklar tili, dini, madaniyati va tarixining mushtarakligi o'zaro munosabatlarning muhim omili bo'lib xizmat qilgan.

Xonlikning tashqi savdosida Buxoro xonligi asosiy o'rinda turgan. Qo'qonlik savdogarlar Buxoro bozorlarida savdo-tijorat ishi bilan shug'ullanib, uning xududidan o'tgan karvon yo'llari orqali Afg'oniston, Hindiston, Eron, arab mamlakatlari, Turkiya va boshqa mamlakatlar bilan savdo olib borish imkoniyatiga ega bo'lganlar[15].

Sharqning qadimiy shaharlaridan bo'lgan Buxoro XVIII - XIX asrlarda ham O'rta Osiyoning yirik iqtisodiy markazlaridan biri edi. Bu davrda Buxoroda O'rta Osiyodagi eng yirik bozor joylashgan bo'lib, unda Eron, Afg'oniston, Hindiston, Qashqar, Rossiya, Qo'qon va Xiva xonliklaridan kelgan savdogarlar o'zaro qizg'in savdo munosabatlariga kirishganlar. XIX asr boshlariga oid ma'lumotlarga ko'ra, Buxoroda haftaning dushanba, seshanba, shanba kunlari ulgurji bozor va shahar devori ortidagi Hoja Bahovuddin Naqshband mozori yaqinida chorshanba kuni ot bozori bo'lgan.

XIX asr 60-yillarida Buxoroda 60 taga yaqin karvonsaroy, 20 dan ortik kichik bozorlar, shuningdek, pishiq g'ishtdan qurilgan 5 ta yirik bozor faoliyat ko'rsatgan. Bu bozorlarning eng yirigi Registon yaqinidagi maydonda joylashgan bo'lib, bozor bu yerda sotiladigan mahsulotlar nomi bilan ataladigan bir necha o'nlab mayda rastalarga bo'lingan[12]. Shuningdek, XIX asr 30-yillariga oid ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro xonligiga Qo'qondan guruch ham olib borilgan va uning har botmoni 42-44 tangadan narxda baholangan[19]. Buxoroga Qo'qon qog'ozining "ishtarxoni" turi Qo'qondan, "abreshim" nomli qog'oz turi esa Qo'qon orqali Xitoydan ko'p miqdorda keltirilgan. Sifatli Qo'qon qog'oziga talabning yuqoriligi sababli buxorolik ijod ahli asosan ushbu qog'ozdan foydalangan va xukmdorlar ham o'z maktublarini ko'proq Qo'qon qog'oziga bitganlar. Xususan, amir Haydar (1800-1825 yil) ning 139 varaq, maktubdan iborat Qo'qon qog'oziga nastaliq xatida yozilgan maktublar to'plami bizning davrimizgacha qolgan[6].

Shuningdek, Buxoro amiri Muzaffarning 1868 yil 7 fevralda turk sultoni Abdulazizga yozgan maktubi ham xattot Mulla Vohid tomonidan Qo'qon qog'oziga nastaliq xatida bitilgan edi[17].

Qo'qon xonligidan Buxoro bozorlariga yuk tashuvchi va zotli otlar ham olib borilgan. XIX asr 60-yillarida 35 pud yuk tashuvchi va 13-14 pud yukni ko'tara oladigan Qo'qon otlari Buxoro bozorlarida 5 tildan 15 tillogacha sotilgan.

Qo'qonlik savdogarlar odatda Buxorodagi Barra karvonsaroyida to'xtaganlar va shu yerning o'zida savdo bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Qo'qonning Buxoro xonligi bilan savdo aloqalarida Samarqand shahri muhim ahamiyatga ega edi. Hindiston, Eron, Afg'oniston va boshqa hududlardan kelayotgan karvonlar Buxoro xonligining Qarshi va Samarqand shaharlari orqali Qo'qon xonligi xududlariga yo'l olganlar. Qo'qon va Toshkent shaharlaridan Buxoroga ketayotgan savdo karvonlari doimiy ravishda Samarqandda to'xtab o'tganlar[13,14].

Samarqandga Qo'qon xonligidan pilla, xom ipak, ipak mato, kuritilgan meva va boshqalar olib kelingan. XIX asr o'rtalarida Samarqandda pilla bozori mavjud bo'lib, Qo'qon pillasiga Buxoro va Samarqand hunarmandlari orasida talab katta bo'lgan. Samarqand pilla bozori haftada ikki marta chorshanba va yakshanba kunlari faoliyat ko'rsatib, unda kuniga 700 tillolik, oyiga esa 5000 tillolik pilla sotilgan.

Shuningdek, Samarkand bozoriga sifatli jun ro'mol va chopon O'ratepadan, kigiz Toshkyent va Xo'janddan keltirilgan[7,17].

XIX asr boshlariga kelib, Qo'qon muhim tranzit shaharlardan biriga aylangan. Natijada uning hududi orqali olib boriladigan Rossiya, Xitoy, Hindiston, Buxoro davlatlarining o'zaro

savdo aloqalarida qo‘qonlik savdogarlar yetakchi o‘rinni egallaganlar. Xitoy muarrixlari yozganidek, qo‘qonliklar savdo ishlariga juda layoqatli edilar. Qashqardan Buxoro bozorlariga xom ipak va ipak matolar, Xitoy chinnisi, choyi, ipak matolari, kumush yombilar keltirilgan. 1825 yil Buxoroda bo‘lgan G.Spaskiy ma‘lumotlariga ko‘ra, Buxorodan Qo‘qon orqali Qashqarga qorako‘l terisi olib borilgan va u yerdan xom ipak, ipak matolar, ip-gazlamalar, Xitoy chinnisi, choyi, rovoch va boshqalar olib kelingan[1].

XIX asr boshlarida Buxoro xonligidan Qo‘qon orqali Qashqarga rus mollari olib kelish ham kuchaygan. 1825 yil ma‘lumotlariga ko‘ra, rus mollari buxoroliklar tomonidan Qo‘qon orqali Qashqarga yiliga 500-600 tuyada olib borilgan. Chunki, Xitoy xukumati G‘ulja orqali rus mollarini Qashqarga kelishiga to‘sqinlik qilgan. Qo‘qon xonligi Xiva xonligi bilan ham yuqori darajada bo‘lmasa-da, muayyan savdo aloqalarini amalga oshirgan. Xonlikning Xiva bilan savdo aloqalari asosan Buxoro xonligi bozorlari va bu davlat hududidan o‘tgan karvon yo‘llari orqali olib borilgan. XIX asr boshlarida Qo‘qon xonligi hududlarining kengayib borishi natijasida qozoq dashtlari orqali ikki xonlik chegaralari tutashib ketgan va to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdo aloqalarini olib borish imkoniyati paydo bo‘lgan. Biroq bu hududdan o‘tgan karvon yo‘llarining uzoqligi, noqulay sharoiti va savdogarlar hayoti uchun xavfliligi savdo munosabatlarining rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Natijada Buxoro xonligi orqali o‘tgan yo‘llar vositasida Qo‘qon - Xiva savdosini amalga oshirish o‘z ahamiyatini saqlab qolgan[3].

O‘rta Osiyo xonliklarida bo‘lib turgan o‘zaro urushlar tabiiy savdo va madaniy aloqalarning taraqqiy etishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Buni XIX asr 20-yillarida O‘rta Osiyoda bo‘lgan Ye.K.Meyendorf kuyidagicha izohlaydi: “Qo‘qon va Xiva xonliklari yaxshi munosabatda, ular o‘zaro savdoni rivojlantirishni xohlaydi. Biroq, bunga Buxoro bosh qo‘shishi kerak. Qo‘qon xoni Buxoro hukmdori bilan ehtiyot bo‘lib harakat kiladi. Shu bilan bir qatorda ikki davlat savdo karvonlaridan Qo‘qon, Buxoro va Xiva xonliklarida boj olinishi mahsulotlar tannarxining ortib ketishiga olib kelgan. Bu esa Qo‘qon - Xiva savdosiga salbiy ta‘sir etgan. Qo‘qon - Xiva savdosida Oqmasjid qal‘asi muhim ahamiyat kasb etgan. Bu Qo‘qon qal‘asi Xiva chegarasidan 45 km uzoqlikda joylashgan bo‘lib, uning bozorida Xiva savdogarlari Qo‘qon savdogarlari bilan oldi-sotdi munosabatlarini amalga oshirganlar. Xususan, A.K.Geyns 1865 yil 16-20 avgust oralig‘ida Oqmasjiddan xivalik va buxorolik savdogarlar rus, qozoq mollarini olib qaytayotganligi haqida ma‘lumot bergan. Bundan tashqari, Qo‘qon - Xiva savdo aloqalari Qo‘qon xonligiga qarashli Yangiqo‘rg‘on, Chimqo‘rg‘on va orqali ham olib borilgan. Qo‘shko‘rg‘on kal‘alari Xiva xonligida ham Qo‘qon ipagi va ipak gazlamalariga tala katta bo‘lgan. Xivalik savdogarlar Buxoro bozorlaridan ipakdan tayyorlangan gazlamalarni ko‘plab xarid qilganlar. Xususan Xiva

bozorlarida Qo‘qon ipak matosi - shoyi yuqori baholangan va xivalik savdogarlar tomonidan ko‘plab olib ketilgan Mashhur Qo‘qon qog‘ozi O‘rta Osiyoning turli xududlari kabi Xiva xonligigacha olib borilgan[9,20].

XVIII asr 70-yillarida Qo‘qon xonligida bo‘lgan F.Yefremov, “O‘sh savdo shahri bo‘lib, Marg‘ilondan uch kunlik yo‘lda joylashgan. O‘sh bozorida Buxoro, Toshkent, Xiva va boshqa hududlardan kelgan savdogarlarni uchratish mumkin”, dyeb esdaliklarida qayd etgan. Xivadan Qo‘qon xonligiga oz mikdorda Xiva choponlari, bo‘z, pustin, ot, tuya, ho‘kiz terilari, yarim ipak mato, gilam, arg‘umoq va Mashhad orqali keltirilgan ingliz chiti olib ketilgan. Otlar Xiva O‘rta Osiyoda chopon tayyorlashning yirik markazlaridan bo‘lib, bu yerda tayyorlangan choponlar o‘zining sifati va ko‘rinishi bo‘yicha boshqa hududlarda tayyorlangan choponlardan ajralib turgan va qo‘shni hududlarda mashhur hisoblangan. Qo‘qon xonligiga keltirilgan Xiva choponlari mahalliy aholi orasida xaridorgir hisoblangan. XIX asr 60-yillarida Qo‘qon xonligida bo‘lgan M.Mixaylov ma‘lumotlariga ko‘ra, Namangan bozorlarida Buxoro sallalari va qo‘y terisidan tayyorlangan Xiva telpaklariga talab katta bo‘lgan va ular bozorlarda yuqori narxlarda sotilgan. Qo‘qon va Xiva xonliklarining savdo aloqalarida turkman arg‘umoq otlari muhim ahamiyat kasb etgan. XIX asr 60-yillarida Toshkentda bo‘lgan P.I.Pashino qayd etishicha, Toshkent bozorlariga qimmatbaho hisoblangan turkman arg‘umoq otlari Xiva va Buxoro xonligidan olib kelingan.

Shunday qilib, Qo‘qon xonligining tashqi savdo aloqalarida qo‘shni xonliklar muhim o‘rin tutgan. Qo‘qonlik savdogarlar bu xonliklarning iqtisodiy markazlariga turli mahalliy mahsulotlarni yetkazib berish bilan birga, bu yerlarga boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan matolarni ham olib borganlar[11].

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Qo‘qon xonligining Buxoro va Xiva xonliklari bilan olib borilgan iqtisodiy munosabatlari XVIII–XIX asrlarda Markaziy Osiyodagi savdo tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan. Ushbu aloqalar, avvalo, xonliklarning geografik joylashuvi, savdo yo‘llarining mavjudligi va o‘zaro iqtisodiy manfaatlar bilan belgilanadi. Qo‘qon xonligining strategik o‘rni uni mintaqaviy savdo tarmog‘ida asosiy bog‘lovchi markazga aylantirgan.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, xonliklar o‘rtasidagi savdo munosabatlari tovar ayirboshlash, karvon yo‘llarining faolligi va bozor infratuzilmasining rivojlanganligi orqali barqaror iqtisodiy hamkorlikni ta‘minlagan. Ayni paytda siyosiy vaziyat, diplomatik munosabatlar va soliq siyosati savdo aloqalarining rivojlanishiga ham ijobiy, ham salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Ba‘zan siyosiy ziddiyatlar savdo faoliyatining vaqtincha cheklanishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, iqtisodiy manfaatlar ustuvorligi tufayli savdo munosabatlari uzluksiz davom etgan.

Umuman olganda, Qo‘qon xonligining Buxoro va Xiva bilan savdo munosabatlari Markaziy Osiyoda mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarining muhim omili bo‘lgan. Ushbu aloqalar nafaqat iqtisodiy taraqqiyotni rag‘batlantirgan, balki xonliklar o‘rtasidagi madaniy va ijtimoiy aloqalarning mustahkamlanishiga ham xizmat qilgan. Tadqiqot natijalari mintaqadagi tarixiy savdo munosabatlarini o‘rganish va ularning iqtisodiy taraqqiyotga ko‘rsatgan ta‘sirini ilmiy jihatdan baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ushbu aloqalar madaniy va ijtimoiy sohalarga ham ta‘sir ko‘rsatgan, xonliklar o‘rtasida madaniy almashinuv va bozor ma‘muriyati tajribalari rivojlanishiga imkon yaratgan. Umuman olganda, Qo‘qon xonligining Buxoro va Xiva bilan savdo munosabatlari Markaziy Osiyoda mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlarining muhim omili bo‘lib, iqtisodiy taraqqiyot, bozor tizimining mustahkamlanishi va xonliklar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning rivojlanishiga xizmat qilgan. Tadqiqot natijalari mintaqadagi tarixiy savdo aloqalarini o‘rganish va ularning iqtisodiy hamda madaniy ahamiyatini ilmiy jihatdan baholashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Путешествие Мир Иззат Уллы в Кокандское ханство в 1812 году / Труды САГУ. История Средней Азии и Узбекистана. Новая серия. 1956. Вып. LVXXVIII. Кн.П. - С. 48.
2. Петровский Н.Моя поездка в Бухару. – С .237
3. Вельяминов-Зернов В. В. Сведения о Коканском ханства... - С. 131.
4. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. 1821. – С. 74
5. Петровский Н. О. О шелководстве и шелкоматерии Средней Азии. - Т., 1873. - С. 43.
6. От Ташкентского ярмарочного комитета. Торговое обозрение // Туркестанские ведомости. 1871. - No 31.
7. Петровский Н. Моя поездка в Бухару. - Т., 1872. – С. 237.
8. От Ташкентского ярмарочная комитета. Торговое обозрение//Туркестанские ведомостию 1871.
9. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухарую- Москваб 1975.-С 130
10. Бухара Туркестанский сборник. Том 30ю 1870. –Сю 111
11. Записки о Бухарском ханстве... С.58-59
12. Тетеревников А. Н. Очерк внутренней торговли Киргизической степи... - С. 28.
13. 281 ЎзР МДА, И. 1-фонд, 27-рўйхат, 714-иш, 8-варақ

14. Описание Чжунгарии и Восточного Туркестана в древнем и нынешнем состоянии. - СПб., 1829. - С. 150.
15. Бунаков Е. В. Политические и экономические связи Восточного Туркестана и Средней Азии с правление Якуб-бека Кашгарского (1865-1877): Дисс... канд. ист. наук. - Т., 1973. - С.19.
16. Записки о Бухарском ханстве... - С. 80-81
17. Ефремов Ф. Странствование в Киргизской степи, Бухарии, Хиве, Персии, Тибет и Индии... – С. 101.
18. Кустарные промыслы в быту народов Узбекистана XIX - XX в.в. – Т., 1986 С. 51.
19. Кустарные промыслы в быту народов Узбекистана XIX - XX в.в. – Т., 1986- С. 51.
20. Сагдуллаев А., Мавлонов Ў., Аминов Б., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. 1-қисм. - Т., 2000. - Б. 246
21. Хабибуллаев Н. Н. Коканд - центр производства писчей бумаги // Позднефеодальный город Средней Азии. - Т., 1990. - С. 163.
22. Пещерова Е. М. Гончарное производства Средней Азии. - Москва, 1959. - С. 287. 317 Из истории международных отношений в Центральной Азии. -Алма-Ата 1990. - С.111.
23. Валиханов Ч. Ч. Описание нескольких монет улуса чагатая, Хивы и Коканда... - С. 189.